



UDK 37.075.8

Abdumadjid XUDAYBERDIEV,
Guliston davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: majidmed@umail.uz

PhD, dotsent M.Niyozov taqrizi asosida

MEDIA TA'LIMNI O'QUV JARAYONIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada media ta'limni o'quv jarayoniga qo'llash asosida ta'lim sifatini oshirishning imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. O'qituvchining pedagogik mahorati orqali talabalarda mediamadaniyatni shakllantirish ancha samarali ekanligiga alohida urg'u beriladi. Talabalarda media ta'limni shakllantirish ularni nafaqat ta'lim jarayoniga balki, hayotga har tomonlama tayyorlashda ham muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: o'quv jarayoni, mediata'lim, mediasavodxonlik, pedagogik jarayon, axborot kommunikatsiya.

ЗНАЧИМОСТЬ И МЕСТО МЕДИА ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются возможности повышения качества образования на основе применения медиаобразования в образовательном процессе. Особый акцент сделан на том, что формирование медиакультуры у студентов посредством педагогического мастерства преподавателя очень эффективно. Формирование медиаобразования у студентов играет важную роль в подготовке их не только к учебному процессу, но и к жизни.

Ключевые слова: Образовательный процесс, медиаобразование, медиаграмотность, педагогический процесс, информационная коммуникация.

THE SIGNIFICANCE AND PLACE OF MEDIA EDUCATION IN THE EDUCATION PROCESS

Annotation

This article discusses the possibilities of improving the quality of education through the use of media education in the educational process. Particular emphasis is placed on the fact that the formation of media culture in students through the pedagogical skills of the teacher is very effective. The formation of media education among students plays an important role in preparing them not only for the educational process, but also for life.

Keywords: Educational process, media education, media literacy, pedagogical process, information communication.

Kirish. XXI asr – yuksak intellektual salohiyatli, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar asri. Chunki internet, televidenie, radio, video, telefon va boshqa aloqa vositalari juda tez jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimizda bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish – mediadan ta'lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo'nalishlaridan keng foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Ta'lim jarayonida media, ya'ni, axborot kommunikatsion texnologiya vositalari o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Mutaxassislar fikricha, mediata'lim talabani mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini yanada rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash, umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim jarayonida mediata'lim qanchalik mukammal bo'lsa, u talabani dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanishiga xizmat qiladi. Demak, bugun mediata'lim sirlarini nazariy jihatdan puxta o'rganib, amaliyotda etarli darajada qo'llash maqsadga muvofiqdir. Axborot kommunikatsiyaning globallashuvi sharoitida ta'lim jarayonida o'ziga xos talablar paydo bo'lmoqda. Bu talablar bevosita mediata'lim bilan chambarchas bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Talabalarda media buyicha ko'nikma va malakalarni, mediasavodxonlikni rivojlantirish muammolari S.Beknazarova, Ya. Mamatova, S.Sulaymanova, oliy ta'limda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muammolari A.Abduqodirov, A.Pardaev, N.Taylakov, S.Tursunov,

U.Begimqulov, U.Yuldashevlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan A.Fyodorov, A.Milyutina, A.Veryayev, V.Protopopova, E.Nikitina, I.Fateeva, G.Onkovich, L.Zaznobina, N.Zmanovskayalar mediata'lim va mediasavodxonlikni tashkil etish bo'yicha salmoqli izlanishlar olib borishgan. I.A.Zimnyaya, Yu.N.Usov, S.N.Penzin, A.V.Sharikov, V.A.Yadovlar mediasavodxonlikni tuzilishi va ijtimoiy xarakteri bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borganlar. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining jurnalistikaga oid fanlar orqali mediasavodxonlik va mediakompetentligini rivojlantirish borasida xorijiy olimlardan A.Silverblatt, McMahon, R.Kubey, C.M.Worsnop, W.J.Potter, U.Carlssonlar tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Media ta'lim barcha ta'lim sohasini sifat jihatdan yanada yuqoriroq pag'ona ko'tarishga, axborot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Ya'ni, talabaga o'quv jarayonida nazariy bilim berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamonaviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yangilik va ta'bir joiz bo'lsa, ilg'or usul talabalarda qiziqish uyg'otadi. Ular dars jarayonida o'sha mavzularni puxta o'zlashtirishlariga xizmat qiladi. Manbalarda qayd etilishicha, YuNESKO qoshidagi kino va televideniya bo'yicha xalqaro kengash tomonidan 1973 yili birinchi marta video ta'limga shunday ta'rif berilgan edi: "Media ta'lim deganda pedagogika nazariyasi va amaliyotida maxsus bilim sohasi sifatida qaralibotgan ommaviy

kommunikatsiya vositalarini egallash uchun nazariy va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni tushunish lozim".

Turli mamlakatlarning ko'plab olimlari "media muhiti", "media madaniyati", "media ta'limi", "media savodxonligi" kabi asosiy tushunchalarni shakllantirishning bir necha usullarini aytib o'tishgan.

Media ta'lim – (ing. media education, lot. media – degan ma'noni anglatadi). "Ta'lim" tushunchasining o'zi nafaqat kasbiy va ilmiy bilimlarni, balki ma'naviy me'yorlar va madaniy qadriyatlarini takror ishlab chiqarishni, to'plashni ta'minlaydigan ijtimoiy institutdir. Media ta'lim talabalarni ommaviy kommunikatsiya (matbuot, televideniye, radio, kino, video, internet va boshqalar) qonuniyatlarini o'rganishga qaratadi.

Dars jarayonida ayon bo'lishicha, mediata'lim o'qitishning mazmuni, usullari va tashkiliy shakllarini sifat jihatdan o'zgartirmoqda. Bu talabalarining individual qobiliyatlarini, ularning shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga, tafakkurini boyitishga, bilimlarini oshirishga yordam bermoqda. Mediata'lim resurslari yordamida ular u yoki bu materialni tezroq o'zlashtiradilar, o'quv jarayoniga faol ishtirokchilar sifatida jalb qilinadilar.

Mediata'lim interfaol talaba-yoshlarga individual ta'sir etadigan usul sifatida ta'lim jarayoniga jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Media-ta'lim talabani mustaqil fikr yuritishga, ijodkorlik faoliyatlarini rivojlantirishga, axborot olish, uni qayta ishlash umumlashtirish, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Mediata'lim qanchalik mustahkam bo'lsa, talaba dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi.

Media ta'limning jadal rivojlanishi atrofimizdagi hayotni sifat jihatdan o'zgartiradi hamda ko'plab yangi muammolarni, masalan, axborot madaniyatini shakllantirish hamda o'sib kelayotgan avlod salomatligi uchun so'zsiz xafzilgini ta'minlash muammolarini keltirib chiqaradi.

"Kompyuter savodxonligi", "axborot savodxonligi" va "axborot madaniyati" tushunchalarining ta'riflarini qiyosiy tahlil qilamiz. Yuqoridagi tushunchalarning har birida insonning axborot bilan o'zaro ta'sirining murakkab hodisasi tasvirlanadi. Bu tushunchalar doirasiga bir qancha komponentlar kiradi: axborotni qidirish, topilgan axborot manbalarini tahlil qilish va tanqidiy baholash qobiliyati, o'quv, kasbiy yoki boshqa faoliyatda yuzaga keladigan turli muammolarni hal qilish uchun ulardan ijodiy foydalanishdir.

Media va axborot savodxonligi konsepsiyasi umuminsoniy huquqlarga asoslanadi hamda ayrim shaxslar, jamoalar va butun millatlar so'z erkinligi huquqi va axborotdan foydalanish erkinligi huquqidan foydalanishining asosiy sharti deb hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida qayd etilishicha, "Har bir inson e'tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir to'siqsiz o'z e'tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g'oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat'i nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o'z ichiga oladi".

Mediata'lim o'quv jarayonida nazariy axborotni berish bilan materiallarni yuqori darajadagi zamoniviy texnika vositasida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'quv ab'ektlari va voqealarni model-lashtiradi, ularni avtomatik rivishda ketma-ketlikda namoyish etadi, ta'svirni tushuradi. Mediata'lim talaba-yoshlarning o'quv mazmunini o'zlashtirishda qiziqishini yanada oshiradi. Talabalarining ko'rgazma-obrazli ta'sirida fikr yuritishi, motorik va verbal kommunikativ ko'nikmalarining shakllanishiga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Mediata'limning bosh maqsadi – asosiy qonunlarni tushunishga yordam beradi, oddiy yo'nalishlardagi media axborot tilini o'rganish; talabaning badiiy o'sishi, rivojlanishiga hissa qo'shish, mediamatnlarni

qabul qilish, o'rganish va malakali tahlil etish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Ta'lim tizimini modernizatsiyalashda mediata'lim masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'limning barcha bug'inlarida tobora faol qo'llanilayotgan mediata'limning turli yo'nalishi, tur va shakllari talabalar, jumladan, talabalarining ma'naviy kuchi, qobiliyatlarini ochish uchun maqbul sharoit yaratib, ta'lim tizimiga yangicha gumanistik yo'nalganlik baxsh etadi. Mediata'lim o'zining texnologik infrastrukturasi, o'z tayanch ta'lim texnologiyalariga ega.

Mediata'lim-o'quv jarayoni va uning barcha didaktik shart-sharoitlarni takomillashtiruvchi hodisadir. Ta'lim jarayonida mediata'limni tashkil etishda o'quv predmetlarining materiallari nihoyatda talabchanlik bilan muvofiqashtirilishi lozim. Talaba o'rganilayotgan materialning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirishga harakat qilishi, talabalar ongida barqaror tizimlashtirilgan bilimlarni singdirish vositasi hisoblanadi.

Mediata'lim orqali dunyoning yetakchi mamlakatlari ta'lim sohasining ustivorligiga erishdi. Bugungi kunda yangi sifatli ta'limga erishish uchun ta'limni axborotlashtirish va o'qitish uslublarini optimallashtirish, ochiq ta'lim texnologiyalaridan faol foydalanishni amalga oshirish zarur.

Media-ta'lim hozirgi davrda shaxsning ommaviy axborot vositalari orqali rivojlanish jarayonini anglatadi.

Manbalardan kelayotgan axborot oqimidan to'g'ri foydalanib, o'zining rivojlanishi uchun kerakli bo'lgan axborotlarni o'rganish. Hozirgi axborotlashgan jamiyatda barcha mediaresurslarini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi. Xorijiy mediata'limning tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar o'zining o'qish jarayonida asosan internet, televideniya manbalaridan foydalanishadi.

Jahon mediapedagogikasida medianing tarbiyaviy ijodiy usullaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Media-ta'lim usullari asosan quyidagi muhim bosqichlarga bo'linadi;

- Media-nazariyasi, uning tarixi, strukturasi hamda tili haqida bilim olish (o'qitish media-texnologiyasi);

- Mediamatnlarni qabul qilishni rivojlantirish «o'qish, anglash, tasavvurni faollashtirish, xotirani rivojlantirish, fikrni turli usullarini rivojlantirish» (kritik, ijodiy, intuitiv hamda obraz yaratish).

- Media-ta'lim faoliyatini olib borish uchun ma'lum bir professional bilim ko'nikma va ko'rsatgichlariga ega bo'lish lozim:

- Maxsus yo'naltirilgan mediata'lim sohasida nazariy bilimlar hamda eng so'nggi axborotlarga ega bo'lish darajasi;
- Motivatsiyalashgan ko'rsatgich.

Masalan, ta'lim jarayoniga:

- aqliy;

- vizual;

- sensor;

- audio bo'lgan faoliyat;

- tezkor media-ta'lim sohasida metodik ko'nikmalarini darajasi, masalan, media -manbalarni va ulardagi axborotlarni ijodiy yondashish orqali qabul qilish.

Mediata'lim maqsadlari quyidagi ko'rinishda ifoda etiladi:

- ommaviy axborot vositalari (OAV) orqali beriladigan axborotlarni tushunish va qayta ishlash, keng talqin etishga o'rgatish;

- ijodiy fikrlashni, u yoki bu xabarning yashirin mazmunini tushunishni, salbiy mazmunli axborotlardagi yoshlarning ongini o'zgartirishga harakatlariga qarshilik qilishni bilishni rivojlantirish;

- talab etiladigan axborotni topish, tayyorlash, yetkazish va qabul qilish malakasini shakllantirish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki media ta'lim-o'quv jarayoni mazmuniga va o'qitish metodikasiga tubdan o'zgarishlar kiritadi, ta'lim oluvchilar tomonidan o'z faoliyatini aks ettirishga, uni mustaqil tartibga solishga yo'naltirilgan pedagogik muammolarni yechishga imkon beradi.

Medianing o'ziga xos xususiyatlarini tushunish va hisobga olish zamonaviy talabaga o'z pedagogik faoliyatini axborot olamidagi zamonaviy o'zgarishlarga mos ravishda turli muammolarni hal qilish jarayonini aniq va to'g'ri tashkil etish, o'z kasbiy malakasini oshirish jarayonida mediadan mohirona foydalanish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR

1. Mamatova Y. Sulaymanova S. O'zbekiston mediata'lim taraqqiyoti yo'lida O'quv qo'llanma T-2015
2. Xudayberdiyev A.A. General factors in the development of information culture of students. / *Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj)* ISSN (E): 2347-6915 Vol. 11, Issue 06, June (2023)
3. Namazov B., Fayzieva M., Sharofaddinov Sh. Media va axborot savodxonligi o'quv qo'llanma Toshkent- 2017, 140 b.
4. Xudayberdiyev A.A "Zamonaviy axborot muhitida yoshlarning mediasavodxonlik darajasini oshirish muammolari va yechimlari" O'zmu xabarlari ilmiy jurnali. 2025, 1/5-son. Ijtimoiy-gumanitar fanlar turkumi.
5. Umurzakova B.A. Mediata'lim orqali mediamadaniyatni rivojlantirish ilmiy-pedagogik asoslari va zarurati. / *Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi* mart 2022. №3
6. Xudayberdiyev A. A. "Media savodxonlik va axborot madaniyati fanini o'qitishda kompyuter texnologiyalari hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Pedagoglar malakasini oshirishning axborot-ta'lim muhitini tashkil etish: muammo va yechimlar xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Guliston, 2023-yil.
7. Samarov R, Sattorov O. Axborot madaniyati va uni shakllantirishning nazariy-amaliy ahamiyati. / *Zamonaviy ta'lim jurnali*. 2014, 1-son.
8. <http://mashvarat.zn.uz/2015/08/17/namanganda-seminar/>